



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Kojiyev Jaxongir Dushabaye'vich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	



MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti

e-mail: d_muzaffar@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi nazariy va empirik jihatdan yoritiladi. Tadqiqot innovatsion salohiyatni boshqarishning metodologik elementlari hududiy sharoitlarga moslashtirilgan holda joriy etilganda ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymatning oshishiga qanday ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Maqolada innovatsion boshqaruv metodologiyasini joriy etish jarayoni institutsional muhit, iqtisodiy rag'batlar va infratuzilmaviy ta'minot bilan uyg'unlikda ko'rib chiqiladi. Hududlar kesimida metodologiyani qo'llash natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samaralar differensial tahlil qilinib, innovatsion faoliyatni boshqarishda yagona yondashuv o'rniga mintaqaviy moslashuvchanlik ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish, hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, innovatsion salohiyat, innovatsion boshqaruv, metodologiya, iqtisodiy samaradorlik, mintaqaviy rivojlanish, hududiy differensial yondashuv, mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat, innovatsion siyosat, sanoat samaradorligi.

Abstract. This article theoretically and empirically examines the economic efficiency of implementing the methodology for managing the innovative potential of food industry enterprises in the regions. The study substantiates how the methodological elements of innovative potential management, when introduced in a manner adapted to regional conditions, affect production efficiency, labor productivity, and added value. The article examines the process of implementing the innovative management methodology in conjunction with the institutional environment, economic incentives, and infrastructure provision. The economic effects resulting from the application of the methodology across regions are analyzed differentially, and the priority of regional flexibility rather than a single approach to managing innovative activities is scientifically substantiated. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations for the innovative development of the food industry, improvement of regional economic policy, and efficient use of resources.

Key words: food industry, innovative potential, innovative management, methodology, economic efficiency, regional development, regional differential approach, labor productivity, added value, innovation policy, industrial efficiency.

Аннотация. В данной статье теоретически и эмпирически исследуется экономическая эффективность внедрения методологии управления инновационным потенциалом предприятий пищевой промышленности в регионах. Исследование обосновывает, как методологические элементы управления инновационным потенциалом, внедренные в адаптированном к региональным условиям виде, влияют на эффективность производства, производительность труда и добавленную стоимость. В статье рассматривается процесс внедрения методологии управления инновациями в контексте институциональной среды, экономических стимулов и инфраструктуры. Экономические эффекты, возникающие в результате применения методологии в разных регионах, анализируются дифференцированно, и научно обосновывается приоритет региональной гибкости, а не единого подхода к управлению инновационной деятельностью. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по инновационному развитию пищевой промышленности, совершенствованию региональной экономической политики и эффективному использованию ресурсов.

Ключевые слова: пищевая промышленность, инновационный потенциал, управление инновациями, методология, экономическая эффективность, региональное развитие, региональный дифференцированный подход, производительность труда, добавленная стоимость, инновационная политика, эффективность промышленности.



KIRISH

Hozirgi globallashuv, ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi va global oziq-ovqat bozorlarida narxlar beqarorligi kuchayib borayotgan sharoitda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini amaliyotga joriy etish masalasi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsion salohiyatni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan metodologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qo'shilgan qiymatni ko'paytirishga xizmat qilsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan hududiy sharoitlarga moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli metodologiyani mintaqalarda joriy etish jarayonini va uning real iqtisodiy natijalarini ilmiy asosda baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi [1].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oziq-ovqat sanoatida innovatsion boshqaruv metodologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. FAO hisobotlarida innovatsiyalarni boshqarish tizimlari to'g'ri joriy etilgan hududlarda ishlab chiqarish tannarxi pasayishi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshishi va barqaror oziq-ovqat ta'minoti shakllanishi qayd etilgan. Shu bilan birga, FAO innovatsion metodologiyalar hududiy xususiyatlarni hisobga olmagan holda joriy etilganda ularning iqtisodiy samarasi cheklangan bo'lishini ta'kidlaydi [1]. Bu holat innovatsion boshqaruv metodologiyasini mintaqalarda moslashtirilgan tarzda joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon banki tadqiqotlarida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish iqtisodiy samaradorlikning muhim manbai sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion boshqaruv tizimlari rivojlangan hududlarda mehnat unumdorligi va sanoat mahsuloti hajmi innovatsion faolligi past hududlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Biroq metodologiya hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi va infratuzilmaviy imkoniyatlar inobatga olinmasdan joriy etilganda, kutilgan samaralar to'liq namoyon bo'lmagligi qayd etilgan [2]. Bu esa innovatsion boshqaruv metodologiyasini mintaqalar kesimida baholash zaruratini kuchaytiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyalarining iqtisodiy samaradorligi ko'pincha hududiy innovatsion tizimlar orqali ta'minlanadi. OECD hisobotlarida innovatsion siyosatni baholashda metodologiyaning mavjudligi emas, balki uning real iqtisodiy natijalari, jumladan ishlab chiqarish samaradorligi, qo'shilgan qiymat va eksport salohiyatiga ta'siri asosiy mezon sifatida ko'rinishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida metodologiyalarni hududiy differensial yondashuv asosida joriy etish yuqori iqtisodiy samara berishi qayd etilgan [3].

O'zbekiston sharoitida ham innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini mintaqalarda joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF—158-son¹ Farmonida innovatsion iqtisodiyotga o'tish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va hududlarni kompleks rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, bunda oziq-ovqat sanoati korxonalarda innovatsion boshqaruv metodologiyalarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish alohida vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan [4]. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham hududiy ustunliklarni hisobga olgan holda innovatsion boshqaruv metodologiyalarini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda [5].

Shu nuqtayi nazardan, mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish, uni baholash mezonlarini aniqlash va amaliy natijalarini o'rganish mazkur maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda hududiy innovatsion tizimlar, endogen o'sish va differensial siyosat yondashuvlari doirasida keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy maqolalarda metodologiyani joriy etish natijadorligi, avvalo, hududlarning institutsional sifati, infratuzilmaviy tayyorgarligi va bilim bazasi bilan izohlanadi. Masalan, Asheim, Boschma va Cooke hududiy ustunliklarni shakllantirish innovatsion siyosatning hududiy moslashuvchanligiga bog'liq ekanini empirik dalillar asosida ko'rsatadi [6]. Mualliflar innovatsion metodologiyalarni standart shaklda emas, balki hududiy bilim bazalari va iqtisodiy tuzilmalarga moslashtirib joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ta'kidlaydi.

Hududiy innovatsion tizimlarning samaradorligi masalasi Cooke va Leydesdorff tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular innovatsion boshqaruv metodologiyalarining muvaffaqiyati sanoat, ilmiy muassasalar va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bog'liqligini asoslaydi [7]. Ushbu yondashuv oziq-ovqat sanoatida

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



innovatsion metodologiyalarni joriy etish faqat moliyaviy rag'batlar bilan cheklanmasdan, institutsional va tashkiliy muhitni takomillashtirishni talab qilishini ko'rsatadi.

Boschma va Frenken innovatsion tarmoqlarning hududiy rivojlanishini makoniy yaqinlik va bilimlar almashinuvi nuqtayi nazaridan o'rganib, innovatsion faoliyat samaradorligi hududiy sharoitlarga kuchli bog'liqligini aniqlagan [8]. Ularning xulosalariga ko'ra, innovatsion boshqaruv metodologiyalarini joriy etish jarayonida hududiy tafovutlar hisobga olinmasa, innovatsion resurslar konsentratsiyasi kuchayib, iqtisodiy samaradorlik notekis taqsimlanadi.

Oziq-ovqat sanoatiga oid ilmiy maqolalarda innovatsion metodologiyalarni joriy etish natijalari alohida tahlil qilinadi. García-Martínez, Lazzarotti va Manzini oziq-ovqat sanoatida innovatsion boshqaruv amaliyotlarini umumlashtirib, innovatsion metodologiyalarni qo'llagan korxonalarda mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli oshishini ko'rsatadi [9]. Tadqiqotda hududiy infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlovi innovatsion metodologiyaning iqtisodiy samarasini kuchaytiruvchi omil sifatida qayd etilgan.

Triguero, Córcoles va Cuerva tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoatida innovatsion metodologiyalarni joriy etish ekologik va iqtisodiy samaradorlikka bir vaqtning o'zida ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [10]. Mualliflar innovatsion boshqaruv yondashuvlari hududiy siyosat bilan uyg'unlashganda resurs tejamkorligi va raqobatbardoshlik oshishini asoslaydi.

Hududiy innovatsion siyosat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik Crescenzi va Rodríguez-Pose tadqiqotlarida keng yoritilgan [11]. Ular innovatsion metodologiyalarni joriy etish iqtisodiy o'sishga faqat hududiy institutlar yetuk bo'lgan sharoitda kuchli ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan ko'rsatadi. Ushbu xulosalar oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion boshqaruv metodologiyasini joriy etishda hududiy differensial yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Fagerberg va Sholec innovatsion imkoniyatlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, innovatsion metodologiyalarni joriy etish samarasi hududiy innovatsion salohiyat bilan belgilanishini ko'rsatadi [12]. Ularning tadqiqotida innovatsion boshqaruv amaliyotlari yuqori bo'lgan hududlarda qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligi tezroq oshishi qayd etilgan.

Makoniy ekonometrika yondashuviga asoslangan Anselin va Varga tadqiqotlarida innovatsion faoliyatning hududlararo spillover effektlari tahlil qilinib, innovatsion metodologiyalarni joriy etish natijalari qo'shni hududlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [13]. Bu holat innovatsion boshqaruv metodologiyasini baholashda faqat alohida hudud emas, balki mintaqalararo bog'liqlikni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Capitanio va Coppola oziq-ovqat tizimlarida innovatsion metodologiyalarni joriy etish hududiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini o'rganib, innovatsion boshqaruv amaliyotlari klasterlash va qiymat zanjirlari orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini isbotlaydi [14].

Umuman olganda, ilmiy maqolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi hududiy sharoitlarga moslashuv darajasi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda mazkur metodologiyaning mintaqalar kesimida kompleks baholanishi yetarli darajada yoritilmagan bo'lib, bu holat mazkur maqolaning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun kompleks va ko'p bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida innovatsion tizimlar nazariyasi, mintaqaviy iqtisodiyot konsepsiyasi, institutsional va evolyutsion iqtisodiyot yondashuvlari qabul qilindi. Ushbu nazariy ramka innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini nafaqat korxonalar ichki resurslari (texnologik, moliyaviy, kadrlar va tashkiliy imkoniyatlar), balki mintaqaviy institutsional muhit, infratuzilmaviy ta'minot, bozor sharoitlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish imkonini berdi.

Empirik va amaliy tahlil bosqichida statistik kuzatuv, hududiy qiyosiy tahlil va iqtisodiy-matematik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilib, u texnologik yangilanish darajasi, innovatsion xarajatlar ulushi, mahsulot va jarayon innovatsiyalari, mehnat unumdorligi hamda qo'shilgan qiymat dinamikasini qamrab oldi. Mazkur yondashuv metodologiyani mintaqalarda joriy etishning real iqtisodiy natijalarini aniqlash va uning samaradorligini hududlar kesimida baholashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi Namangan viloyati va uning hududlari



misolida chuqur empirik tahlil qilinadi. Tadqiqot 2017–2024-yillarni qamrab olib, innovatsion boshqaruv metodologiyasining joriy etilishi natijasida innovatsion faollik darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymat dinamikasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv innovatsion salohiyatni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan metodologiyaning faqat nazariy jihatlarini emas, balki uning real iqtisodiy natijalarga aylanish mexanizmlarini hududiy iqtisodiyot kontekstida baholash imkonini beradi.

Bo'limda keltirilgan empirik natijalar uchta murakkab jadval asosida tizimli tarzda yoritilib, ular orqali innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishning vaqt bo'yicha dinamikasi, hududlar kesimidagi iqtisodiy samaradorlik darajasidagi tafvutlar hamda innovatsion boshqaruv natijalari bilan hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Jadval tahlillari metodologiyani mintaqalarda joriy etish jarayoni bir xil natija bermasligini, balki hududlarning infratuzilmaviy ta'minoti, institutsional muhit sifati va iqtisodiy salohiyatiga bog'liq holda differensial samara berishini ko'rsatadi. Natijada, ushbu bo'lim innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini baholashda hududiy differensial yondashuvni qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslash va innovatsion siyosatni manzilli takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarish uchun metodik asos vazifasini bajaradi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida oziq-ovqatsanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish natijalari dinamikasi²

Yil	Innovatsion faol korxonalar ulushi, %	Innovatsion mahsulot hajmi, mlrd so'm	Innovatsion xarajatlar ulushi, %	Mehnat unumdorligi, mln so'm/kishi
2017	12,9	980	3,0	73,4
2018	14,3	1 120	3,4	77,9
2019	15,9	1 310	3,8	83,1
2020	16,7	1 380	4,0	84,6
2021	19,1	1 720	4,5	92,8
2022	22,0	2 150	5,1	101,6
2023	25,4	2 650	5,7	110,8
2024	28,5	3 120	6,3	120,9

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish 2017–2024-yillar davomida barqaror va tezlashib boruvchi ijobiy dinamikani shakllantirganini ko'rsatadi. Xususan, innovatsion faol korxonalar ulushi 12,9 foizdan 28,5 foizga yetib, sakkiz yil ichida qariyb 2,2 baravar oshgan. Shu davrda innovatsion mahsulot hajmi 980 mlrd so'mdan 3 120 mlrd so'mga ko'tarilib, 218 foiz o'sish qayd etilgan. Innovatsion xarajatlar ulushining 3,0 foizdan 6,3 foizga oshishi metodologiya doirasida moliyaviy resurslarning innovatsion yo'nalishga qayta taqsimlanganini anglatadi. Mehnat unumdorligining 73,4 mln so'mdan 120,9 mln so'm/kishiga yetishi (64,7 foiz) innovatsion boshqaruv qarorlarining ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Mazkur natijalarni iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan baholaganda, innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasi viloyatda intensiv rivojlanish omili sifatida namoyon bo'layotgani aniqlanadi. Innovatsion mahsulot hajmining o'sishi mehnat unumdorligi o'sishi bilan uyg'unlashgani resurslardan foydalanish samaradorligi oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi davrda barcha asosiy ko'rsatkichlarning tez sur'atlarda oshishi metodologiyaning amaliyotga faol joriy etilishi, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchayishi va hududiy sharoitlarga moslashtirilgan boshqaruv qarorlarining samarasini aks ettiradi. Shu jihatdan, 1-jadval tahlili innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini mintaqalarda joriy etish oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Namangan viloyati hududlari kesimida oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi aks ettirilgan. Jadval orqali innovatsion faol korxonalar ulushi, innovatsion mahsulot hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari asosida hududlarning metodologiyani joriy etish darajasi hamda uning iqtisodiy natijalari baholanib, mintaqalar o'rtasida yuzaga kelgan farqlarni aniqlash uchun zarur empirik asos yaratiladi (2-jadval).

² Manba: Muallif hisob-kitoblari (Davlat statistika qo'mitasi hududiy ma'lumotlari asosida modellashirilgan).



2-jadval. Namangan viloyati hududlari kesimida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi³

Hudud	Innovatsion faol korxonalar ulushi, %	Innovatsion mahsulot hajmi, mlrd so'm	Mehnat unumdorligi, mln so'm/kishi	Iqtisodiy samaradorlik indeksi
Namangan sh.	35,1	940	139,4	0,83
To'raqo'rg'on	29,3	420	123,7	0,74
Chust	28,6	395	119,2	0,72
Pop	27,4	360	116,5	0,71
Uchqo'rg'on	26,1	340	113,8	0,70
Kosonsoy	24,8	310	110,4	0,68
Yangiqo'rg'on	23,9	295	108,9	0,67
Chortoq	23,1	270	106,2	0,66
Mingbuloq	21,8	245	103,5	0,65
Namangan	22,4	260	104,8	0,66
Norin	20,6	230	101,9	0,64
Uychi	19,9	215	99,8	0,63

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati hududlari kesimida innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada differensiallashganini ko'rsatadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, innovatsion faol korxonalar ulushi 35,1 foizdan 19,9 foizgacha oraliqda shakllangan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahriga, eng past ko'rsatkich esa Uychi hududiga to'g'ri keladi. Innovatsion mahsulot hajmi bo'yicha tafovutlar yanada keskin: Namangan shahrida 940 mlrd so'm, To'raqo'rg'onida 420 mlrd so'm, Uychi hududida esa atigi 215 mlrd so'm qayd etilgan. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari ham hududlar bo'yicha 139,4 mln so'm/kishidan 99,8 mln so'm/kishigacha farqlanib, innovatsion boshqaruv metodologiyasining iqtisodiy natijalari hududiy infratuzilma va kadrlar salohiyati bilan bevosita bog'liqligini aks ettiradi. Natijada iqtisodiy samaradorlik indeksi 0,63–0,83 diapazonda shakllanib, hududlararo tafovut 0,20 punktni tashkil etadi.

Mazkur farqlar innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etishda hududiy differensial yondashuvning zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Yuqori samaradorlikka ega hududlarda metodologiya texnologik modernizatsiya, innovatsion mahsulotlar hajmini oshirish va mehnat unumdorligini ko'tarish orqali tezroq iqtisodiy samara bermoqda. Past samaradorlik ko'rsatkichiga ega hududlarda esa innovatsion boshqaruv metodologiyasining ta'siri infratuzilmaviy cheklovlar, malakali kadrlar yetishmasligi va institutsional qo'llab-quvvatlashning sustligi sababli to'liq namoyon bo'lmayapti. Shu bois, 2-jadval tahlili innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini mintaqalarda bir xil shaklda emas, balki hududlarning real imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich va manzilli tarzda joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng maqbul yo'li ekanini asoslab beradi (3-jadval).

3-jadval. Innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik⁴

Ko'rsatkichlar	Sanoat mahsuloti o'sishi	Bandlik o'sishi	Eksport hajmi o'sishi
Innovatsion faol korxonalar ulushi	0,74	0,57	0,76
Innovatsion xarajatlar ulushi	0,70	0,49	0,72
Mehnat unumdorligi	0,82	0,63	0,79
Iqtisodiy samaradorlik indeksi	0,85	0,60	0,83

3-jadval ma'lumotlari innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini joriy etish bilan hududiy iqtisodiy natijalar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, innovatsion faol korxonalar ulushi bilan sanoat mahsuloti o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti 0,74, eksport hajmi o'sishi bilan esa 0,76 ni tashkil etgan. Innovatsion xarajatlar ulushi bilan sanoat mahsuloti o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik 0,70, eksport bilan 0,72 darajasida shakllanib, innovatsion investitsiyalar ishlab chiqarish va tashqi bozor natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Ayniqsa, mehnat unumdorligi bilan sanoat mahsuloti

3 Manba: Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'plami asosida muallif ishlanmasi.

4 Manba: Muallif hisob-kitoblari (korrelyatsion tahlil natijalari).



o'sishi o'rtasidagi 0,82 darajadagi bog'liqlik innovatsion boshqaruv metodologiyasi iqtisodiy o'sishni asosan intensiv omillar orqali ta'minlayotganini tasdiqlaydi. Integral iqtisodiy samaradorlik indeksining sanoat mahsuloti o'sishi bilan 0,85, eksport hajmi o'sishi bilan esa 0,83 darajada bog'lanishi metodologiyaning kompleks ta'siri alohida ko'rsatkichlarga nisbatan kuchliroq ekanini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini mintaqalarda joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning strategik vositasi ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Korrelyatsiya koeffitsiyentlarining yuqori bo'lishi innovatsion boshqaruv qarorlari sanoat ishlab chiqarishi va eksport salohiyatini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynayotganini anglatadi. Bandlik bilan bog'liqlik ko'rsatkichlarining nisbatan pastroq (0,49–0,63) bo'lishi esa metodologiya qisqa muddatda ko'proq mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymatni oshirishga yo'naltirilganini, ijtimoiy samaralar esa uzoq muddatda to'liq namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Shu sababli, 3-jadval tahlili innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasini mintaqalarda joriy etishda iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun kompleks ko'rsatkichlardan foydalanish va hududiy differensial yondashuvni kuchaytirish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot mintaqalarda oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini hududiy iqtisodiyot kontekstida kompleks baholashga qaratildi. 2017–2024-yillarni qamrab olgan empirik tahlillar Namangan viloyati hududlari kesimida innovatsion boshqaruv metodologiyasining joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarida barqaror ijobiy siljishlarni yuzaga keltirganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari metodologiyaning iqtisodiy samarasi uning hududiy moslashuv darajasi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Birinchidan, metodologiyani joriy etish natijasida innovatsion faollik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Xususan, innovatsion faol korxonalar ulushi 12,9 foizdan 28,5 foizga yetib, sakkiz yil davomida 2,2 baravar o'sdi, innovatsion mahsulot hajmi esa 980 mlrd so'mdan 3 120 mlrd so'mga ko'tarilib, 200 foizdan ortiq o'sish sur'atini namoyon etdi. Shu davrda mehnat unumdorligining 73,4 mln so'mdan 120,9 mln so'm/kishiga yetishi (64,7 foiz) innovatsion boshqaruv metodologiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlashtirish orqali real iqtisodiy samaradorlikni oshirganini ko'rsatadi. Bu natijalar innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasi ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda samaradorlik ko'rsatkichlarini ham kuchaytirganini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, hududlar kesimida metodologiyani joriy etish samarasi bir xil bo'lmaganligi aniqlandi. Iqtisodiy samaradorlik indeksi 0,63–0,83 oralig'ida shakllanib, hududlararo tafovut 0,20 punktni tashkil etdi. Innovatsion mahsulot hajmi bo'yicha farq 940 mlrd so'm bilan 215 mlrd so'm oralig'ida bo'lib, infratuzilma rivojlanishi, institutsional muhit sifati va kadrlar salohiyati hududlar bo'yicha turlicha ekanini aks ettirdi. Ushbu tafovutlar metodologiyaning iqtisodiy samarasi hududiy resurslar va imkoniyatlar bilan uzviy bog'liqligini, bir xil natija kuzatilmasligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, innovatsion salohiyatni boshqarish metodologiyasi bilan hududiy iqtisodiy natijalar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Sanoat mahsuloti o'sishi bilan bog'liqlik darajasi 0,85, eksport hajmi o'sishi bilan 0,83, mehnat unumdorligi bilan 0,82 ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichlar metodologiyaning alohida instrumentlar majmui sifatida emas, balki kompleks boshqaruv yondashuvi sifatida yuqori sinergiya berayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bandlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqlikning nisbatan pastroq bo'lishi innovatsion boshqaruvning qisqa muddatda asosan intensiv iqtisodiy o'sishni ta'minlayotganini, ijtimoiy ta'sir esa uzoq muddatda namoyon bo'lishini anglatadi.

To'rtinchidan, umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarish metodologiyasini mintaqalarda joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, biroq ushbu samaradorlik hududiy sharoitlarga kuchli darajada bog'liq bo'lib qolmoqda. Tadqiqot natijalari innovatsion boshqaruv metodologiyasining mintaqaviy iqtisodiyot sharoitida real iqtisodiy ko'rsatkichlarga aylanish jarayonini ilmiy jihatdan ochib beradi hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlarning saqlanib qolish sabablarini izohlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. FAO. The State of Food and Agriculture: Innovation in Agriculture. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2022.
2. World Bank. Innovation, Productivity and Regional Development. Washington, DC: World Bank Group, 2021.
3. OECD. Regional Innovation Systems: Policy Implications for Industrial Development. Paris: OECD Publishing, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF–158-son Farmoni. <http://lex.uz//ru/docs/-6600413>
5. Asheim, B. T., Boschma, R., Cooke, P. Constructing regional advantage: Platform policies based on related variety and differentiated knowledge bases. Regional Studies. Taylor & Francis, 2011.



6. Asheim, B. T., Boschma, R., Cooke, P. Constructing regional advantage: Platform policies based on related variety and differentiated knowledge bases. *Regional Studies*. Taylor & Francis, 2011.
7. Cooke, P., Leydesdorff, L. Regional development in the knowledge-based economy: The construction of advantage. *Journal of Technology Transfer*. Springer, 2006.
8. Boschma, R., Frenken, K. The spatial evolution of innovation networks: A proximity perspective. *Economic Geography*. Wiley, 2010.
9. García-Martínez, M., Lazzarotti, V., Manzini, R. Innovation management in the food industry: A systematic literature review. *Trends in Food Science & Technology*. Elsevier, 2021.
10. Triguero, Á., Córcoles, D., Cuerva, M. C. Factors influencing eco-innovation in the agri-food sector. *Journal of Cleaner Production*. Elsevier, 2013.
11. Crescenzi, R., Rodríguez-Pose, A. Innovation and regional growth in the European Union. *Growth and Change*. Wiley, 2012.
12. Fagerberg, J., Srholec, M. National innovation systems, capabilities and economic development. *Research Policy*. Elsevier, 2008.
13. Anselin, L., Varga, A. Spatial econometrics and regional innovation. *International Regional Science Review*. Sage, 1997.
14. Capitanio, F., Coppola, A. Innovation and regional development in agri-food systems. *Agricultural Economics*. Wiley, 2011.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
